



## IMPORTANT IMPORTANCE OF ELEMENTARY THEORY OF MUSIC IN THE FIELD OF MUSIC EDUCATION

Khuramov Ulugbek Karimjonovich

Department of Music Education, Termiz State University

[xurramov\\_ulugbek@mail.ru](mailto:xurramov_ulugbek@mail.ru)

<https://orcid.org/0000-0001-5756-2467>

### Abstract:

The article shows the importance of music education in the educational process for students studying in the specialty "Elementary Music Theory", as well as the specifics of the industry's professional activities through the theme of the musical system. Information is given about the features of musical sounds, their significance in creating an artistic image.

**Keywords:** pitch, hardness, timbre, lengthening, vibration, amplitude, hertz, high tones, natural sounding

Musiqa san'ati sohasida faoliyat yuritib ijod qilayotgan qobiliyatli yosh avlodni salohiyatli va raqobatbardosh yetuk kadrlar etib tayyorlashda musiqiy adabiyotlardan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, jonli musiqa shovqin va zo'ravonlik joylar yoki festivallarga yaqin bo'lgan salbiy ta'sirlarga ham ega bo'lishi mumkin. Lekin ijodkor yoshlarga musiqa san'atining amaliy (ijro texnikalari, uslublari) imkoniyatlarini o'rgatish bilan bir qatorda, ayniqsa sohani nazariy jihatdan ham bilim ko'nikmalarini oshirmoq zarur. Eng muhimi, raqobatbardosh kadrlarni ongi va ruhidagi yaratuvchilik salohiyatini jonlantirib, ularni o'zbek musiqa san'ati va millati kamolotiga xizmat qildirish darkor.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "... agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Bunday holatlarning oldini olish uchun san'atkorlar orasida sog'lom ijodiy muhit tashkil qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san'ati namunalaridan keng bahramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish,



musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi".

Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan. Bu qaror ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'lim yo'nalishida ta'limni tashkil etishni isloh qilish zaruratini ko'rsatadi.

Ikkinchiidan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida ham shaxs ijtimoiy faolligi bir necha bor e'tirof etiladi. Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Uchinchiidan, mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratilib, O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Bu qaror ham madaniyat sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni talab etadi.

XXI asr musiqa tajribasi shuni ko'rsatadiki u o'zining mukammalligi, yo'nalishlarining serunumligi, sohaning har tomonlama rivoj topganligidan dalolat beradi. Umuman musiqaning asosiy elementlari va ayniqsa, kuy va uning sirlarini o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Olinadigan bilimlarni umumlashtirish maqsadida har bir musiqa elementi haqidagi ma'lumot modulning ayrim qismlariga kiritilganligiga qaramay, o'quvchi shuni yodda tutishi kerakki, musiqa elementlari faqat bir-biri bilan bog'liqligidagina o'zining ifodali xususiyatlarini namoyon qilishi mumkin.

San'atning eng muhim va keng xalq ommasiga kirib boruvchi turlaridan biri musiqa san'atidir. Unda badiiy mazmun tovushlar (ohang) orqali bayon etiladi



va musiqaning o'ziga xos ifoda vositalarini o'zaro bog'lovchi muayyan qoidalarga asoslanadi.

Mazkur qoida va an'analar xalq (folklor) hamda mumtoz musiqasining (maqomlar va maqom yo'lidagi kuy va ashulalar) asrlar davomida vujudga kelgan tajribasi natijasida vujudga kelgan. Har qanday musiqani cholg'u sozida ijro etish yoki kuylash uchun musiqaning elementar nazariyasini bilish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, mazkur fanni o'qitish dastlab musiqa asarlarini ijro etish va ulardagi mavjud tovush va intervallar munosabatlari borasidagi bilimlarni o'zlashtirishni qamrab oladi.

Har qanday shakl va mazmundagi musiqa rang-barang tarkibiy qismlardan tashkil topadi va musiqa nazariyasi – musiqaning elementar nazariyasi, garmoniya, musiqa asarlari tahlili, polifoniya va cholg'ushunoslik singari bir necha tarmoqlarga ajraladi.

Musiqaning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'lanishlari haqidagi materiallar musiqa va uning nazariyasiga oid fanlarda aks yettirilgan. Mazkur fanlarning boshlang'ich kursi musiqaning elementar nazariyasidir.

Musiqaning elementar nazariyasi kursi musiqa grammatikasi, musiqaning asosiy unsurlarini va ayniqsa, kuyni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu fan doirasida jumladan, musiqiy tovush xususiyatlari, uning nota matnida ifodalanishi texnologiyasi, musiqaning asosiy ifoda vositalari: metr-ritm, lad, garmoniya; ikki tovushning nisbati (interval), uch va undan ortiq tovushlar nisbati (akkord) va ular orqali ifodalanadigan musiqiy mazmun; lad, tonalliklarning musiqiy mazmuni ifodalash imkoniyatlari tahliliy o'rganiladi.

Badiiy obraz musiqa asarlarida o'ziga xos tarzda, ya'ni, ma'lum tovushlar va ohanglar sintezi sifatida aks yettiriladi. Musiqa asarlarida shakl va mazmun bir-birini to'ldiruvchi unsurlar sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Musiqaning elementar nazariyasi kursida tovush so'zi ikki xil tushunchani bildiradi: birinchisi – fizik holatdagi tovush; ikkinchisi – sezgi holatidagi tovushdir.

1. Masalan, biror egiluvchan jism, cholg'u asbobi torining tebranishi natijasida havoda uzunasiga taralgan to'lqinli tebranishlar hosil bo'ladi. Bu tebranishlar tovush to'lqinini hosil qiladi. Ular tovush manbaidan turli tomonlarga aylanasimon tarqaladi.

Ushbu hodisaning umumiy zanjiri quyidagicha amalga oshadi: tovush to'lqini manbai – tovush to'lqinlari – eshitish organiga tovush to'lqinlarining ta'sir etishi



– eshitish analizatorlari orqali qabul qilingan qo'zg'atuvchi ta'sirining bosh miyaga uzatilishi.

Fizik nuqtai nazardan, tebranishlar o'lchov VI sifatida tebranadigan jismning bir sekunddagi tebranishlari soni gerts(gts) qabul qilingan.

2. Yangragan tovush to'lqinlari eshitish organi tomonidan qabul qilingach, unga ta'sir etadi va asab tuzilmasi (analizator) orqali bosh miyaga o'tib, tovush sezgisini qo'zg'atadi.

Ma'lumki, biz kundalik hayotda juda ko'p, xilma-xil tovushlarni eshitamiz. Lekin bu tovushlarning hammasi ham musiqada qo'llanila bermaydi. Eshitish organlarimiz musiqaviy tovushlar bilan shovqinli tovushlarni bir-biridan ajratish qobiliyatiga ega. Shovqinli tovushlar, masalan, qarsillash, gumburlash, g'ijirlash, shivirlash, dukillash va hokazolar aniq tovush to'lqini balandligiga ega emas, shuning uchun ham bu tovushlar musiqada qo'llanilmaydi.

Musiqaviy tovushning nazariy jihatdan to'rt xil fizik xususiyati mavjud. Ular balandlik, uzunlik (cho'zim), qattiqlik (tovush kuchi) va tembr (tovush tusi) dan iborat.

Yangrayotgan tovushning balandligi tebranayotgan egiluvchan jismning tebranish tezligi, ya'ni chastotasiga bog'liqdir. Tebranish qanchalik tez bo'lib tursa, tovush shunchalik baland bo'ladi va aksincha, tebranish qanchalik sust bo'lsa, tovush shunchalik past bo'ladi.

Yangrayotgan tovushning cho'zimi tebranayotgan jismning to'lqin amplitudasiga bog'liqdir. Tovushning uzun yoki qisqaligidan uning fizik xarakteri o'zgarmaydi, lekin musiq nuqtai nazaridan tovushning cho'zimi uning yana bir xususiyati bo'lib, muhim ahamiyatga egadir. Tovush cho'zimi tovush manbai tebranishining davom etishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, tovush chiqqa boshlaganda tovush manbaining tebranishi qanchalik keng bo'lsa, tovushning pasayib borishi ham shuncha uzoq davom etadi. Bunda albatta, tovush manbai bo'lgan jism erkin tebranishi shart.

Yangrayotgan tovushning qattiqligi tebranish harakatining kuchiga, ya'ni, tovush manbai bo'lgan jismning tebranish kengligiga bog'liqdir. Tebranish harakatlari amalga oshiriladigan fazo doirasi tebranish amplitudasi (kengligi) deyiladi (1 – rasmga qaralsin).

Tebranish amplitudasi qanchalik katta bo'lsa, tovush shunchalik qattiq eshitiladi va aksincha.


Tembr deb tovushning sifat xususiyati, uning rang-barangligiga aytiladi. Tembr xususiyatlarini ifodalashda his-tuyg'ularga taalluqli turli iboralar qo'llaniladi, masalan: mayin, keskin, yo'g'on, jarangdor, kuychan tovush deyishadi va h.k.

Ma'lumki, har bir cholg'u asbobi yoki inson ovozi o'ziga xos tembrga egadir. Xilma-xil cholg'u asboblarida eshitiladigan ma'lum balandlikdagi tovushlar o'zlarining rang-barangliklari bilan bir-biridan farq qiladi. Tembrning farqlanishi har bir tovushga xos bo'lgan yuqori tonlarning tarkibiga (tabiiy aks-sadolarga) bog'liqdir.

Yuqori tonlar (obertonlar) tovush to'lqinlarining murakkab shakli natijasida yuzaga keladi. Musiqaning elementar nazariyasi fani musiqaning tembr xususiyatlarini keng o'rganmaydi, bu borada cholg'ushunoslik va orkestrrovka fanlari doirasida bahs yuritiladi.

Turli qalinlikdagi tebranuvchi jism, masalan tor tebranayotib, teng bo'laklarga bo'linishi natijasida tovush to'lqinlarining murakkab shakli vujudga keladi. Jismning umumiy tebranishi jarayonida bu teng bo'lakchalar alohida tebranib, o'zining uzunligiga muvofiq keladigan qo'shimcha to'lqinlar hosil qiladi.


Shunday qilib, yuqori tonlar qo'shimcha oddiy tebranish natijasida hosil bo'ladi. Yuqori tonlarning balandligi har xil bo'ladi, chunki ularni hosil qiladigan tebranish tezligi turlichadir. Masalan, cholg'u asbobi torida birgina asosiy ton eshitilganda edi, uning to'lqinlanish shakli quyidagi grafik tasvirga muvofiq bo'lardi:



1-rasm.


Torning teng yarmidan hosil bo'lgan ikkinchi yuqori ton to'lqinining uzunligi asosiy ton to'lqinidan ikki marta qisqa, tebranish chastotasi (tezligi) esa ikki marta tezroq bo'ladi va hokazo.

Yarmidan hosil bo'lgan to'lqin (ikki marta tez):




2-rasm

Uchdan bir qismidan hosil bo'lgan to'lqin (uch marta tez):



3-rasm

To'rtidan bir qismidan hosil bo'lgan to'liqin (to'rt marta tez):



4-rasm

Torning dastlabki tovushi (asosiy toni) ning tebranish sonini birlik sifatida olsak, yuqori tonlarning tebranish sonlarini quyidagi oddiy raqamlarda ifodalash mumkin: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16 va hokazo.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чоратadbирлар тўғрисида”ги Қарори. 2017 йил 31 май №ПҚ-3022. “Халқ сўзи” газетаси 1 июнь, 2017 й.
3. Ш.М.Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: “Ўзбекистон”, 2017.
4. Урманова Л., Тригулова А., Ибраҳимжанова Г. Муסיқа назарияси. Тошкент,
5. Хуррамов У.К. Процессы формирования исполнительных традиций на народных инструментах // Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари. 2021. № 9. Б. 186–192.
6. Khuramov U. K. FORMATION, DEVELOPMENT AND HISTORY OF HARMONY //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – С. 77-82.
7. Karimjonovich K. U. et al. SHERNA BAKHSHI'S WORK AND ITS PLACE IN SHEROBOD SCHOOL OF FRIENDSHIP //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – Т. 25. – №. 4. – С. 13413-13417.



8. Karimjonovich, K. U. (2021). Sherna bakhshi's work and its place in shero bod school of friendship. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(4), 13413-13417.
9. Karimjonovich, X. U. B. (2022). Important importance of elementary theory of music in the field of music education. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 200-204.
10. Khurramov, U. K. (2021). Processes of formation of performance traditions in folk instruments. *Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari*, 9, 186-192.
11. Хурамов, Великобритания (2019). СТАНОВЛЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И ИСТОРИЯ ГАРМОНИИ. *Теоретическая и прикладная наука*, (12), 77-82.
12. Karimjonovich, X. U. B. (2023). QADIMIY KUYLAR VA ULARNI TASHKIL ETUVCHI QISMLAR. *Scientific Impulse*, 1(7), 74-81.
13. Musurmonqulovna, B. F., & Khurramov, U. (2022). ARTISTIC INTERPRETATION OF WORKS FOR THE PIANO IN THE WORKS OF YOUNG COMPOSERS OF THE XXI CENTURY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 95-97.
14. Xuramov, U. B. K. (2022). MUSIQA ASARLARIDAGI DAVRIYA TURLARI. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 198-204.
15. Irnazarov, O. Y. (2022). HISTORY AND STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ART OF BAXSHI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(3), 314-319.
16. Yuldoshovich, I. O. (2023). URMA ZARB CHOLG'ULARNING KELIB CHIQUISH TARIXI VA QO'LLANILISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 19(8), 46-50.
17. Yolandevych, I. O., & TerDP, K. K. M. (2023). PERFORMANCE OF DAP INSTRUMENT OF SURKHANDARYA REGION AND ITS PECULIARITIES.
18. Yuldashevich, I. O. THE PERFORMANCE GROUP OF MUSICAL INSTRUMENTS, THE EMERGENCE OF THE " DOIRA" MUSIC FROM MUSICAL INSTRUMENTS.
19. Musurmonqulovich, O. U. B. (2022). Buyuk akbarshohning yoshligi. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 31-35.
20. Musurmonqulovich, O. U. B., & Abdurayimovna, T. D. (2023). "BOBURNOMA" ASARIDA MUSIQAGA OID VOQEALAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 19(8), 54-57.
21. Musurmonqulovich, O. U. B. (2022). АКБАРШОХНИНГ SAN'ATGA BO'LGAN E'TIBORI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 495-499.



22. Raxmatullaev, X. S. (2023). MESOPOTAMIYA (IKKI DARYO ORALIGI) MUSIQASI. Академические исследования в современной науке, 2(9), 102-113.
23. Raxmatullaev, X. S. (2023). THE EPIC OF ERGENEKON OR THE RETURN OF THE TURKIC PEOPLES. Science and innovation in the education system, 2(1), 15-20.
24. Raxmatullaev, X. S. (2022). BLIND SON OR INFANT SON? HEROIC EPIC OF TURKISH PEOPLES THROUGH THE EYES OF THE WORLD. Scientific Impulse, 1(5), 1588-1592.
25. Raxmatullaev, X. S. (2022). THE GREATEST EPIC OF THE TURKIC PEOPLES IS MANAS. Scientific Impulse, 1(5), 1593-1598.
26. Raxmatullaev, X. S. (2022). ANOTHER LOOK AT THE TURKISH HEROIC EPIC. Scientific Impulse, 1(5), 1585-1588.
27. Raxmatullaev, X. S. (2023). OSIYO, AVSTRALIYA, SHIMOLIY VA JANUBIY AMERIKA QITALARIDA TARIHGACHA BOLGAN DAVRLARDA MUSIQA. Академические исследования в современной науке, 2(9), 114-120.
28. Raxmatullaev, X. S. (2023). MUSIQANING KASHF QILINISHI HAQIDAGI NAZARIYALAR. TARIHGACHA BOLGAN DAVR. Solution of social problems in management and economy, 2(4), 70-75.
29. Raxmatullaev, X. S. (2023). ERAMIZGACHA BOLGAN DAVRLARDA QADIMGI MISR MUSIQASI. Академические исследования в современной науке, 2(9), 97-101.
30. Rustamova, I. K., Abdullayev, R. A., & Xolmirzayeva, M. F. (2020). Study of depression and anxiety prevalence in patients undergoing acute myocardial infarction. Вестник Казахского национального медицинского университета, (2-1), 628-629.
31. Sadullayevna, J. M. (2023). HXON MAMADALIYEVNING IJODIY MEROSI.
32. Sadullayevna, J. M. (2023). AN'ANAVIY XONANDALIK IJROCHILIGI ASOSIDA TALABALARDA TAFAKKUR VA IDROKNI YUKSALTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI.
33. Sadullayevna, J. M. (2023). O 'ZBEK AN'ANAVIY QO 'SHIQCHILIGIDA FATTONXON MAMADALIYEVNING IJODIY MEROSI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(5), 112-115.
34. Nuriddinovich, M. H. (2023). HISTORY AND DEVELOPMENT PROCESSES OF CHORAL ART.





35. Uktamovna, E. D. (2023). FORM, METHODS AND MEANS OF FORMING CHILDREN'S MUSICAL ABILITY. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 19(8), 58-62.
36. Pardayevna, H. N. (2023). UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 19(8), 63-66.
37. Pardayevna, H. N. (2023). UMUM TA'LIM MAKTABLARI "MUSIQA MADANIYATI" DARSLARINING MAZMUNI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 19(8), 63-66.
38. Akramovna, S. S. (2023). ISSUES OF ACOUSTICS AND PERFORMANCE SKILLS IN DUTOR DRUM.
39. TO, T. C. I. P. P. Khojageldiyeva Mahfuza Ergash qizi.
40. Ходжагельдыева, М. Э., & Машрабалиева, Б. М. (2022). ИСТОРИЯ ПРОИСХОЖДЕНИЯ СЛОВА "ДУТАР" И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛНЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2 (97)), 919-923.
41. Pardayevna, H. N. (2022). The role of club activities in the development of students' musical abilities in general education schools. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 10, 13-15.
42. Amanovich, K. E. (2022). TRADITIONAL SINGING AND TRADITIONAL MUSIC SKILLS. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(2), 206-210.
43. Khojageldiyeva, M. E., & Sayfiddinova, S. A. (2022). THE HISTORY OF THE ORIGIN OF THE WORD DUTAR AND METHODS OF ITS PERFORMANCE. Экономика и социум, (4-2 (95)), 211-214.
44. Khojageldiyeva, M. E., & Nabiyeva, K. H. (2022). THE IMPORTANCE OF APPLICATION OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Экономика и социум, (4-2 (95)), 207-210
45. Musurmonqulovna, B. F., & Khurramov, U. (2022). ARTISTIC INTERPRETATION OF WORKS FOR THE PIANO IN THE WORKS OF YOUNG COMPOSERS OF THE XXI CENTURY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 95-97.